

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK
AKADEMIYASI

MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI
FAKULTETI

O‘ZBEK VA XORIJIY TILLAR
KAFEDRASI

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to‘plami

25-Aprel **2025**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK
AKADEMIYASI**

MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK VA XORIJIY TILLAR KAFEDRASI

**XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH METODOLOGIYASINING
AHAMIYATI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

25-aprel 2025-yil

Toshkent-2025

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida"gi 2024-yil 24-dekabrda 490-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan o'tkazilgan "XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, xalq ta'limi va umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.
(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

Mazkur to'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining ilmiy va o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 24-apreldagi 8-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Tahrir hay'ati:

B.Shamsematova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan mudiri, dotsent, PhD.

Sh.Akbarova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan dotsenti, PhD.

F.Xodjakulova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan katta o'qituvchisi, PhD.

F.Aripova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan katta o'qituvchisi.

D.Muminova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan dotsenti, PhD.

D.Xasanova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan dotsenti v.b., PhD.

F.Shirinova – O'zbek va xorijiy tillar kafedrasidan katta o'qituvchisi, PhD.

KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASI TARKIBI:

Tashkiliy qo‘mita raisi:

B.Shamsematova – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası mudiri, dotsent, PhD.

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

M.Ulmasbaeva – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.

D.Xasanova – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası dotsenti v.b., PhD.

A.Hafizov – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi.

L.Azimova – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası dotsenti v.b., PhD.

V.Myakota – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi.

K.Aripova – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi.

I.Asrorov – O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi.

TIL VA DUNYOQARASH

Roʻzaliyev Bexzodjon

Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

+99890 99 8829767

Page |
18

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va dunyoqarash oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik, tilning inson tafakkuriga, madaniy qadriyatlariga hamda milliy oʻzlikka taʼsiri falsafiy va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Til orqali shakllangan dunyoqarash inson va jamiyatning borligʻini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, turli tillar oʻrtasidagi semantik tafovutlar, milliy xususiyatlar va tilning ruhiy-maʼnaviy ildizlari asosida milliy xarakterlar shakllanishi yoritiladi. Maqolada til va fikrlash oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar, Gumboldt qarashlari asosida ilmiy asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Til, dunyoqarash, tafakkur, milliy oʻzlik, Gumboldt, lingvistik tafovut, madaniyat, semantika, fikrlash, tilshunoslik.

Til va dunyoqarashni tahlil qilish dunyoqarashni aniqlash bilan bir qatorda tilning mavjudlik uslubiga murojaat qilishni ham talab qiladi. Til va dunyoqarash haqida gap ketganda bir xil maʼno olamiga murojaat qilinmasa, til va dunyoqarash haqida aytilgan gaplar mos kelmaydi. Odamlar oʻz tiliga nisbatan individual yoki ijtimoiy jihatdan oʻziga xos “dunyo idroki”ga ega boʻladilar. “Tilning dunyoqarashi – bu tilning dunyoni talqin qilishi, dunyoning shu tilda tashkil etilishi va tartibga solinishi, dunyoning shu tilda soʻzlashuvchilar tomonidan qanday shaklga ega boʻlishidir”¹. Tildagi dunyoqarash haqida gapirganda, “Bu dunyoqarash tilda qani?”, deb soʻrasak, dunyoqarash oʻsha tilga xos ayrim vaziyatlarda jamlangan boʻlsa ham, butun oʻsha tilga tarqalganligini koʻramiz. “Dunyoqarash tilda aks etadi, ikkinchi tomondan, til butunlay dunyoqarashdir”². Biz dunyoqarash qanday ekanligini oʻsha

¹ Bor İbrahim. Analitik Dil Felsefesinde Dil, Düşünme ve Anlam. – Ankara: Elis Yayınları, 2011. –S. 27.

² Uygur Nermi. *Dilin Gücü*. – İstanbul: Kabcacı Yayınevi, 1994. –S. 130.

dunyoqarash eng sodda shaklda ifodalanganda bilib olamiz. Lekin bundan, faqat nutqiy til ma'lum bir dunyoqarashni o'rnatadi, yaratadi yoki taqozo etadi, degan xulosa qilish mumkin emas. "Dunyoqarash ko'plab faoliyatning birgalikdagi mahsulidir"³.

Dunyoqarash – bu dunyoni bizga ochadigan va dunyodagi faoliyatimizga izchil yo'nalish beradigan fikrlarimiz, g'oyalarimiz va mulohazalarimiz⁴. Bularni faqat til orqali ochish va shakllantirish mumkin. Tilning dunyoni idrok etishi tildan tilga o'zgaradi. Dunyodagi voqelikning bir mintaqasida paydo bo'lgan tizim boshqa tilning semantik dunyosiga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, har bir til mavjudlikning turli qatlamlarini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida quyosh chiqishi zikr qilinganda, "tong otganda", "kun yorishganda", "kun chiqqanda" kabi iboralar ko'p ishlatiladi. Bu o'zbeklarning koinotdagi ko'plab jonsiz narsalarga hayot sifatleri nisbat bergan animistik davrlardagi tushuncha va o'sha davrga tegishli dunyoqarash mahsuli, deb o'ylashimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilidagi "qo'llamoq" fe'lini ko'rib chiqsak, bu fe'l "qo'l" so'zidan olingan bo'lib, muxlis sifatida futbol musoboqasini tomosha qilgani borganimizda o'z futbol jamoamizni qo'llagani keldik, deymiz. Lekin, qo'l bilan biror-bir mehnat qilmaymiz. Imtihonga ketayotgan abituriyentga uydagilari "Allohning o'zi qo'llasin, o'zi oson qilsin, yaxshi topshrib kel", deb duo qiladi. Bu misollardan xulosa qilishimiz mumkinki, dunyoqarashimiz jamiyatda til orqali namoyon bo'ladi.

Til fikrni ochib beruvchi va tugallaydigan narsadir. O'z tilini yaratuvchi va yuksaltiruvchi jamiyatgina haqiqiy tafakkur faolligini namoyon qila oladi. Shaxslar o'z fazilatleri kuchi bilan inson ruhiyatiga yangi turtki bera olganidek, millatlar ham o'z tillarining rivojlanishi bilan bu turtkini bera oladi⁵. Nemis filologi, faylasufi, tilshunosi, davlat arbobi va diplomati Ferdinand fon Gumboldtning fikricha, til tuzilmalaridagi farqlar bizni ularni ma'lum vositalar bilan ma'lum maqsadlarni

³ Chomsky Noam. Doğa ve Dil Üzerine. – İstanbul: Sözcükler Yayınları, 2008. –S. 69.

⁴ Descartes Rene. Metot Üzerine Konuşma. – İstanbul. 1986. –S. 54.

⁵ Saussure Ferdinand. Genel Dilbilim Dersleri. – İstanbul: Multilingual Yayınları, 2001. –S. 43.

amalg oshirib ro'yobga chiqarish sari olg'a siljuvchi harakat, millatlarni shakllantiruvchi qobiliyat sifatida tekshirishga majbur qiladi⁶. Tillarning rivojlanishi odamlarni o'z mavjudligini yaxshiroq his qila oladigan intellektual mavqega olib kelganda, bu rivojlanish vositasi bo'lgan tillar shunday xususiyatga ega bo'ladi, millatlarning xarakterini ularning an'analari, urf-odatlar va marosimlaridan ko'ra yaxshiroq tushunish mumkin⁷, bo'ladi. "Millatning ruhi uning tilida namoyon bo'ladi"⁸. Shaxsning ma'lum bir millatga mansub bo'lishi uning so'zlashuvchi tilining tuzilishiga, demak, o'z fikriga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Til nafaqat so'z va predmetlarni bog'lovchi vosita, balki milliy o'zlikni shakllantirish vositasidir⁹. Shu tariqa millat turli til belgilarini qo'llashdan tashqari, turlicha fikrlash va qarash tarziga ega bo'ladi, dunyoni turlicha idrok etadi va anglaydi, dunyoga o'zgacha tuyg'u va iroda bilan yondashadi. Binobarin, biz milliy tilning asl ma'nosini dunyo haqida umumiy fikrga ega bo'lish, dunyoga umumiy munosabatda bo'lish sifatida ilgari sura olamiz¹⁰.

Aslida, tilni boshqa tillardan ajratib turadigan narsa nafaqat uning o'ziga xos lingvistik belgilaridir. Qolaversa, til insonga boshqa fikrlash shaklini, boshqa nuqtai nazarni beradi. Binobarin, har bir obyektiv idrok muqarrar ravishda tilda shakllangan dunyoqarashning subyektivligi bilan birga keladi. Odamlar o'z tillari tufayli dunyoni boshqacha tushunishadi. Ular quvonch va qayg'ularini boshqacha aks ettiradilar. Shunday qilib, umumiy til umumiy dunyo rasmini keltirib chiqaradi. Buning aksi ham haqiqatdir. Dunyoqarashlarning xilma-xilligi tillarga belgilar va tovushlardan tashqari ma'no va mazmun xilma-xilligini beradi.

Bu yerda bir tilda so'zlashuvchi millatning til ko'zgusida, tilga nisbatan xarakterini, dunyoqarashini ochib berish bizni mazmunli yo'lga boshlaydi. Insonlarni har bir tilda dunyoqarashni izlashga undaydigan birinchi omil tilning tafakkurga ta'sir qilishi, til va tafakkur o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikdir.

⁶ Akarsu Bedia. *Dil-Kültür Bağlantısı*. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1998. –S. 27.

⁷ Duralı Ş. Teoman. *Akılın Anatomisi*. – İstanbul: Dergah Yayınları, 2010. –S. 59.

⁸ Akarsu Bedia. *Dil-Kültür Bağlantısı*. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1998. –S. 35.

⁹ Harris Roy, Tablot J. Taylor. Dilsel ve Zihinsel Çeşitlilik Üzerine Humboldt'un Görüşleri. *Dil Bilimi Düşününde Dönüm Noktaları*. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2002. –S. 146.

¹⁰ Porzig Walter. *Dil Denen Mucize*. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1986. –S. 8.

Darhaqiqat, bizning tilimiz fikrlash tarzimizni belgilaydi va fikr til tomonidan chizilgan yo'lda rivojlanadi. Til atrofimizdagi hamma joyda, har tomonimizga singib ketgan, bizni har yerda qamrab oladi. Biz o'zligimizning tubiga yetib boradigan joyda tilimizdan nimanidir topamiz¹¹. Biz tilda nafas olamiz va tilimiz dunyoqarashimizni belgilaydi. Darhaqiqat, fikrlash bizni o'rab turgan dunyodan imkon qadar xabardor bo'lishni anglatadi¹². Page 21

Tilning tuzilishi va intellektual faoliyatning boshqa turlari muvaffaqiyati o'rtasida inkor etib bo'lmaydigan bog'liqlik mavjud. Chunki, millatning til tuzilishi, uning ruhiy o'ziga xosligi shu qadar yaxlitlik va uyg'unlikni ko'rsatadiki, ulardan biri mavjud bo'lsa, ikkinchisi butunlay undan kelib chiqishi mumkin. Insonlar olamidagi tillar tuzilishining bir-biridan farq qilishi sababi millatlarning ruhiy xususiyatlaridadir va bu xususiyatlar o'zgarmas ekan, tafovutlar davom etadi. Ularning asosiy fazilatlariga nazar tashlasak, tillardagi individuallik yaqqol seziladi. Tilda qancha qo'shish, ajratish va bo'lish amalga oshirilmasin, unda baribir noma'lum narsa saqlanib qoladi¹³.

Tilda ishlatilgan so'zni birlamchi va ikkinchi darajali ma'nolari bilan birga to'liq yaxlit tushunish mumkin. Shuning uchun ham bir so'zni boshqa tildagi bir so'z bilan to'g'ridan-to'g'ri moslashtirish, hatto bir tildagi bir so'zni boshqa bir so'zga bevosita mos kelishi ham mumkin emas. Tildagi so'zlarning o'ziga xosligini qo'llab-quvvatlovchi yana bir jihat shuki, tilda paydo bo'lgan buyuk adiblar o'z shaxsiy xususiyatlarini o'z ifodalarida aks ettirish orqali o'zlari ishlatayotgan so'zlarning ma'nolariga doimiy ravishda yangi o'lchamlar qo'shishlari mumkin.

Har bir tilda o'ziga xos qadriyat va dunyoqarash mavjud. Shu sababli, yangi tilni o'rganish insonning dunyoqarashini boyitibgina qolmay, dunyoqarashiga ham bevosita ta'sir qiladi. Biroq, Humboldt ham ta'kidlaganidek, inson o'z dunyoqarashining ta'siri tufayli chet tilining qiymat yukini to'liq o'z zimmasiga

¹¹ Uygur Nermi. *Dilin Gücü*. – İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1994. –S. 140-141.

¹² Cündioğlu Dücan. *Dünya Görüşü ve Dil*. – Ankara: Bİ'E Yayınları, 2009. –S. 81.

¹³ Humboldt. *Dil Yapılarının Çeşitliliği ve Bunun İnsan Neslinin Zihinsel Gelişimine Etkisi*. – Ankara: Phoenix Yayınevi, 2011. –S. 133-140.

olmaydi¹⁴. O'z dunyoqarashi u o'rganayotgan yangi tilga bosim o'tkazganligi sababli, inson yangi o'rganilgan tildagi dunyoqarashga to'liq kira olmaydi.

Demak, har bir tilda dunyoqarash mavjud. Shuningdek, har bir dunyoqarash til orqali shaxslar va jamiyatga aks etadi. Millatlarning asosiy xarakterlari va o'ziga xosliklari ularning tillarida o'zini namoyon etadi. Biz doimo o'zimiz va dunyomiz haqidagi barcha ma'lumotlarda bizga tegishli bo'lgan til bilan o'rab olingan bo'lamiz. Darhaqiqat, biz dunyoda qanday uyimizda bo'lsak, o'z tilimizda ham xuddi shundaymiz¹⁵. Bizning tilimiz va dunyoqarashimiz barcha fikr hamda bilimlarimizni eng boshidan belgilab beradi. Dunyoning muayyan lingvistik ifodalarida voyaga yetish, o'sib-ulg'ayish dunyoni alohida pozitsiyadan ko'rish qobiliyatini shakllantiradi. Shu jihatdan tilning mavjudligi inson borlig'idan ustun turadi va nima qilsak ham bizni o'rab-qamrab oladi.

Til inson ongida boshlanib, tugaydigan tuzilma emas. Til shaxsdan tashqari nutqiy harakatlar yig'indisi ham emas. Til zamondan yuqori bo'lgan ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan tuzilmadir. Biror bir tilni o'rganib, o'zlashtirganimizdan keyin, u bizni o'z ichiga olgan dunyoqarash bilan shakllantiradi. Biz narsalarni til bizga taqdim etgan fikrlash shakllari bilan tushunamiz va ular haqida baho beramiz. Binobarin, tilimiz o'zida mujassam etgan dunyoqarashni o'ziga tegishli lingvistik ko'rsatkichlar sifatida tinimsiz ravishda bizning holatimizni shakllantirib turadi.

¹⁴ Akarsu Bedia. *Dil-Kültür Bağlantısı*. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1998. –S. 64.

¹⁵ Gadamer Hans-Georg. *İnsan ve Dil. Felsefi Fragmanlar: Hakikat Nedir?*. – İstanbul: Efkâr Yayınları, 2004. –S. 116-118.